



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.2 № 4

2025

O‘ZBEK TILIDA AKSIOGEN VAZIYAT VA UNING LINGVOMADANIY KONNOTATSIYA HAMDA MADANIY KODLARNI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Usmanov Farxad Faxriddinovich
Andijon davlat universiteti dotsenti, f.f.d.

Annotatsiya.

Maqolada aksiogen vaziyat tushunchasi lingvokulturologik va aksiologik yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Aksiogen vaziyat qadriyat bilan bog‘langan, baholovchi va ramziy ma’noga ega bo‘lgan real holat sifatida talqin etilgan. Tadqiqotda ushbu tushuncha o‘zbek tili materiallari asosida ochib berilib, uning lingvomadaniy konnotatsiya va madaniy kodlarni shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Tahlil jarayonida o‘zbek tilidagi o‘xshatishlar, frazeologik birliklar asosiy empirik manba sifatida jalb qilingan hamda rus va ingliz tillari bilan chog‘ishtirma kuzatishlar olib borilgan.

Kalit so‘zlar: aksiogen vaziyat, qadriyat, lingvomadaniy konnotatsiya, madaniy kod, diskurs, aksiologiya.

АКСИОГЕННАЯ СИТУАЦИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И ЕГО РОЛЬ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЙ КОННОТАЦИИ И КУЛЬТУРНЫХ КОДОВ

Усманов Фархад Фахриддинович
доцент Андижанского государственного университета, д.ф.н.

Аннотация.

В статье анализируется концепция аксиогенной ситуации на основе лингвокультурного и аксиологического подходов. Аксиогенная ситуация интерпретируется как реальная ситуация, связанная с ценностью, имеющая оценочное и символическое значение. Исследование раскрывает эту концепцию на основе материалов узбекского языка, подчеркивая ее роль в формировании лингвокультурных коннотаций и культурных кодов. В процессе анализа в качестве основного эмпирического источника использовались аналогии и фразеологические единицы узбекского языка, а также проводились сравнительные наблюдения с русским и английским языками.

Ключевые слова: аксиогенная ситуация, ценность, лингвокультурная коннотация, культурный код, дискурс, аксиология.

AXIOGENIC SITUATION IN THE UZBEK LANGUAGE AND ITS ROLE IN THE FORMATION OF LINGUOCULTURAL CONNOTATIONS AND CULTURAL CODES

Usmanov Farxad Faxriddinovich
Associate Professor of Andijan State University,
Doctor of Philological Sciences

Abstract.

This article analyzes the concept of an axiogenic situation based on linguacultural and axiological approaches. An axiogenic situation is interpreted as a real situation associated with value, possessing evaluative and symbolic meaning. The study explores this concept using Uzbek language materials, emphasizing its role in the formation of linguacultural connotations

and cultural codes. During the analysis, analogies and phraseological units of the Uzbek language were used as the primary empirical source, and comparative observations with Russian and English were also conducted.

Keywords: axiogenic situation, value, linguacultural connotation, cultural code, discourse, axiology.

Zamonaviy tilshunoslikda tilni inson tafakkuri, madaniyati va qadriyatlar tizimi bilan uzviy bogʻliq holda oʻrganish ustuvor yoʻnalishlardan biriga aylandi. Antropotsentrik paradigma doirasida til birliklari endilikda nafaqat nominativ yoki struktur hodisa, balki ijtimoiy tajriba va madaniy xotiraning ifodasi sifatida ham talqin qilinmoqda. Shu jarayonda qadriyat masalasi, ayniqsa, lingvokulturologiya va diskurs tadqiqotlarida markaziy oʻrinni egallaydi. Qadriyatlar til orqali bevosita emas, balki ularni faollashtiruvchi muayyan vaziyatlar orqali namoyon boʻladi. Ana shunday vaziyatlar ilmiy adabiyotda aksiogen vaziyat nomi bilan yuritiladi. Aksiogen vaziyat inson hayotida muhim deb topilgan, ijtimoiy va axloqiy baholashga sabab boʻladigan holat boʻlib, u nutqda barqaror lingvistik shakllar orqali ifodalanadi. Ushbu maqolada aksiogen vaziyat tushunchasining nazariy mohiyati ochib beriladi va u oʻzbek tilidagi empirik materiallar asosida lingvomadaniy birlik sifatida talqin qilinadi.

Aksiogen vaziyat (аксиогенная ситуация) terminini V.Karasik qoʻllagan boʻlib, u “mazkur vaziyatlar dinamik – hodisalar koʻrinishida va statik qadriyatli markerlangan vaziyatlar tarzida namoyon boʻlishi”[3, C.65] ni koʻrsatadi. Olimning fikricha, aksiogen vaziyatlar odamlar xotirasida muhrlangan boʻlib, afsona, masal, maqol, latifa va hayotiy voqealar koʻrinishida verballashadi[3, C.65].

Aksiologiya nuqtayi nazaridan qaralganda, inson dunyoni neytral tarzda emas, balki qadriyatlar prizmasi orqali idrok etadi. Qadriyatlar manzarasi insonning “nima muhim”, “nima maqbul”, “nima nomaqbul” degan savollarga bergan barqaror javoblari majmuasidir. Til ushbu manzaraning asosiy ifoda vositasi boʻlib, qadriyatlar til birliklarida turli darajada kodlanadi.

Aksiogen vaziyat qadriyatlar manzarasining dinamik birligi sifatida namoyon boʻladi. Unda qadriyat abstrakt tushuncha sifatida emas, balki aniq hayotiy holat orqali faollashadi. Masalan, ota-onaga xizmat qilish, vatan himoyasi, halollikni foydadan ustun qoʻyish, nomusni saqlash kabi vaziyatlar oʻzbek madaniyatida yuqori baholanadi va bu holatlar til orqali barqaror ifoda topadi. Bu jarayonda vaziyatning oʻzi qadriyatni “ishlatadi”, nutq esa uni ifodalaydi, ramziy shaklga keltiradi.

Lingvomadaniy konnotatsiya til birligining denotativ maʼnosidan tashqari, madaniy va qadriyatga oid qoʻshimcha mazmunini anglatadi. Aksiogen vaziyat aynan shu konnotativ qatlamni faollashtiruvchi mexanizm hisoblanadi. Biror til birligi muayyan aksiogen vaziyatda qoʻllanganda, u faqat maʼlumot bermaydi, balki baholaydi, yoʻnaltiradi va ijtimoiy meʼyorni mustahkamlaydi.

Soʻz aksiologik baho va milliy-madaniy konnotatsiya xususida ketar ekan, quyidagi misolni keltirish, bizningcha, oʻrinli: oʻzbek lingvomadaniyati stereotiplariga koʻra, qambagʻalning gʻururi baland boʻladi. Oʻziga xos ushbu stereotip turli kontekstlarda namoyon boʻlib (“Boylik yo muhtojlik maydon tashqarisida qolsa-da, bilingki, kambagʻalning gʻururi, nomusi baland va metin boʻladi. “Boy”ning nomusi emas”[5]. “...Kambagʻalning ori kuchli boʻladi. Bunday odam atay telefon qilib, oʻzining yordamga muhtoj ekanligini isbotlagandan koʻra, qattiq non bilan kifoyalanishni afzal koʻradi”[1]), bunday holat shaxs sifatleri ichida gʻurning alohida oʻrni va qimmatini koʻrsatadi. I.Krasnova uni ijtimoiy-baho konsepti deb atab, uning maʼlum bir baho, assotsiatsiyalar, konnotatsiyalarni belgilab berishini eʼtiborga oladi va aksiologema deb hisoblaydi[4, C.48]. “Gʻurning aksiologikligi mutlaq va oʻzgarmasdir”[4, C.48].

Masalan, koʻz qorachigʻidek asramoq birikmasi oddiy oʻxshatish emas, balki “nihoyatda qadrlil boʻlgan narsani himoyalash”ni ifodalaydi. Ushbu ibora ota-ona, farzand,

vatan kabi tushunchalar bilan bog'langan vaziyatlarda ishlatilganda, aksiogen xarakter kasb etadi. Shu tarzda lingvomadaniy konnotatsiya vaziyat orqali yuzaga chiqadi va qadriyat voqelanadi.

O'zbek tilida aksiogen vaziyatlar ko'pincha o'xshatishlar, frazeologik birliklar va barqaror nutqiy formulalar orqali ifodalanadi. Jumladan, ota-onaga munosabat bilan bog'liq vaziyatlarda ota-ona qadriga yetmoq, ota-onaning roziligi, ko'z qorachig'idek asramoq kabi birliklar faol qo'llanadi. Bu birliklar nafaqat holatni tasvirlaydi, balki axloqiy baholashni ham o'z ichiga oladi.

Mehnat qadriyati bilan bog'liq aksiogen vaziyatlar chumolidek mehnatkash, ertalabdan kechgacha bel bog'lab ishlamoq kabi birikmalar orqali ifodalanadi. Bu yerda chumoli obrazi mehnatsevarlikning madaniy etaloni sifatida ishlaydi. Jasorat va mardlik bilan bog'liq vaziyatlarda esa sherdek jasur, temirdek iroda kabi o'xshatishlar qo'llanadi.

Aksiogen vaziyatlarning bir qismi umumbashariy bo'lsa-da, ularning lingvistik ifodasi madaniyatga qarab farqlanadi. Masalan, mehnatsevarlik o'zbek tilida chumoli orqali, rus va ingliz tillarida esa asalari orqali ifodalanadi. Bu holat mushtarak qadriyatlarning turli madaniy obrazlar orqali verballashishini ko'rsatadi.

Boshqa tomondan, ayrim obrazlar madaniyatga xos baholashga ega. Ingliz tilida it sadoqat timsoli bo'lsa (as loyal as a dog), o'zbek tilida unga teng o'xshatish bo'lgani holda, it bilan bog'liq o'xshatishlar ko'pincha salbiy konnotatsiyaga ega. Қиёс учун, ergashish (itdek, soyadek) yoki suykalish (mushukdek suykalmog) kabi o'xshatishlar ham o'rin oladi. Bunday harakatlar harakatning meyordan tashqari ko'rinishlari sifatida salbiy baholanadi. Chunki millat egalari bunday harakatlarda natija – ijobiy baholanuvchi mazmunni ko'rmaydi. Bu farq aksiogen vaziyatlarning milliy-madaniy tabiatini yaqqol namoyon etadi.

Mazkur tadqiqot lingvokulturologik, diskursiv va aksiologik yondashuvlar uyg'unligida olib borildi. Metodologik asos sifatida aksiogen vaziyat konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu yondashuvga ko'ra, qadriyatlar til tizimida alohida so'zlar orqali emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tipik vaziyatlar orqali namoyon bo'ladi. Shu bois tahlilda vaziyat, baholash va nutq o'rtasidagi bog'liqlik markazga qo'yildi.

Yuqorida aytilganlardan anglashiladiki, qadriyatlarni lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish tarixiy hamda qiyosiy va chog'ishtirma aspektlarga ko'proq e'tibor qaratilishi lozim deb hisoblaymiz.

Tarixiy aspekt, bizningcha, tahlil etilayotgan qadriyatning mif va afsonalar, folklorda qay darajada aks etganini, uning uchun aksiogen vaziyat qaysi ekanini tushunish imkonini beradi. Ular muloqot chog'ida so'zlovchining ongiga doimiy ta'sir etadi, so'zlovchi unga havola qiladi (kuyovni payg'ambarlar siylagan...; mehmonning izzati uch kun...). Mif, afsonalar, umuman, folklor asarlari orqali qadriyatlarni tahlil etishda ularning talqini asliyatdan ancha uzoqlashgan bo'lishi mumkinligini unutmaslik lozim[2, B.99].

Qiyosiy va chog'ishtirma aspect esa tahlil etilayotgan qadriyatni o'zga madaniyatlar bilan qiyoslab yoki chog'ishtirib o'rganish milliy o'ziga xoslikni aniqroq ko'rish va bo'rttirib ko'rsatish uchun zarur. Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib aytish mumkinki, kommunikatsiya jarayonida nima yaxshi, nima yomon, qanday ish tutish yaxshi, qanday ish tutish yomon ekanini bilvosita ko'rsatuvchi referent vaziyatlar aksiogen vaziyat maqomida bo'ladi. Ularni aniqlash aksiologik markerlar yordamida kechadi. Ya'ni, albatta, bunday vaziyatlar ijobiy yoki salbiy baholanayotgani nutq mazmunidan anglashilib turadi.

Masalan, jasorat va mardlik bilan bog'liq aksiogen vaziyatlar sherdek jasur, yuragi tog'dek, temirdek iroda kabi o'xshatishlar orqali ifodalanadi. Masalan, "U sherdek jasur yigit ekanini yana bir bor ko'rsatib qo'ydi" jumlasida sher obrazi kuch va jasoratning madaniy etaloni sifatida namoyon bo'ladi. Ingliz tilida bu vaziyat ko'proq as brave as a lion orqali, rus tilida esa смелый как лев orqali ifodalanadi, bu esa sher/lion obrazining universal ramziy xarakterga egaligini ko'rsatadi.

Ota-ona va farzand munosabatiga oid aksiogen vaziyatlar qiyosida farqlar yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. O'zbek tilida ota-onani ko'z qorachig'idek asramoq birikmasi farzandning axloqiy burchini, ya'ni ota-onaga xizmat qilish majburiyatini aks ettiradi. Rus tilida bunday vaziyat ko'proq *береж как зеницу ока* orqali ifodalanib, umumiy ehtiyotlash va asrash ma'nosini beradi, biroq u ota-ona bilan bevosita bog'lanmaydi. Ingliz tilida *esa to take care of one's parents* kabi neytral ifoda ustun bo'lib, unda axloqiy majburiyatsizlik ko'ra ijtimoiy mas'uliyatga urg'u beriladi. Bu farqlar o'zbek madaniyatida oilaviy qadriyatlarning markaziy o'rin tutishini ko'rsatadi.

Jasorat bilan bog'liq aksiogen vaziyatlarda esa sher obrazi uchala tilda uchrasa-da, uning funksional yuki bir xil emas. O'zbek tilida sherdek jasur ifodasi nafaqat jasorat, balki mardlik va rahbarlik fazilatlarini ham o'z ichiga oladi. Rus tilidagi *смелый как лев* birikmasida esa jasorat individual sifat sifatida talqin qilinadi. Ingliz tilidagi *as brave as a lion* esa ko'proq romantik va qahramonlik konnotatsiyalariga ega bo'lib, kundalik nutqda kamroq ishlatiladi. Bu holat sher obrazining o'zbek tilida yanada faol aksiogen potentsialga egaligini ko'rsatadi.

Empirik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, aksiogen vaziyat qadriyatlar manzarasining muhim va dinamik birligi hisoblanadi. U orqali qadriyatlar nutqda faollashadi, baholanadi va madaniy kod sifatida uzatiladi. O'zbek tilidagi aksiogen vaziyatlar asosan ota-ona hurmat qilish, mehnatsevarlik, jasorat, or-nomus va sadoqat kabi qadriyatlarni markazga oladi. Ushbu qadriyatlar o'xshatishlar, frazeologik birliklar, umuman, turg'un birliklar orqali verballashadi.

Aksiogen vaziyatlarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish til va madaniyat o'rtasidagi murakkab aloqalarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu sababli bu tushuncha nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va ijtimoiy fanlar uchun ham istiqbolli tadqiqot obyekti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Ноёб ижтимоий тузилма”нинг имкониятидан кенгрок фойдаланайлик [Internet manba] <https://uza.uz/uz/posts/noyeb-izhtimoiy-tuzilma-ning-imkoniyatidan-kengro-foydalanay-16-04-2020>
2. Usmanov F. O'zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti. Monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 214 b.
3. Карасик В.И. Aksiogenная ситуация как единица ценностной картины мира // Политическая лингвистика. 2014. №1. – С. 65. [Internet manba] URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aksiogennaya-situatsiya-kak-edinita-tsennostnoy-kartiny-mira>.
4. Краснова И.А. Концепт “честь” в русской языковой картине мира. – Канада, 2010. – 238 с.
5. Ўзингни англа. [Internet manba] <https://m.stadion.uz/blogs/author/Xasanali/articles/1845>